

№454, 6-yanvar, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 5-yanvar holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	295 481 637	(+ 2 153 579)
Sog'ayganlar soni	-	256 098 928	(+ 746 962)
Vafot etganlar soni	-	5 473 960	(+ 7 230)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	58 040 720	(+ 567 696)
	Hindiston	-	35 018 358	(+ 58 097)
	Braziliya	-	22 323 837	(+ 18 759)
	Buyuk Britaniya	-	13 641 520	(+ 218 724)
	Rossiya	-	10 589 505	(+ 271 686)
	Turkiya	-	10 570 212	(+ 15 903)
	Fransiya	-	9 652 394	(+ 54 724)
	Germaniya	-	7 279 025	(+ 43 890)
	Eron	-	6 785 286	(+ 117 775)
	O'zbekiston	-	199 361	(+ 90)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



Turkiya koronavirusga qarshi vaksinaning beshinchi dozasi ni taqdim etdi

Turkiya koronavirusga qarshi beshinchi dozani to'rt dozani qabul qilganlarga berilishiga ruxsat berdi. Bu haqda Daily Sabah [2] xabar bermoqda.

"Xitoy Sinovac vaksinasining ikki dozasi va BioNTech vaksinasining ikki dozasi kamida uch oy avval olgan shaxslar beshinchi dozani qabul qilish uchun ro'yxatdan o'tishlari mumkin", deb yozadi gazeta.

Sinovac, BioNTech va mahalliy turk vaksinasi Turkovac beshinchi doza sifatida qo'llash uchun taqdim etildi.



Turkovac - bu COVID-19 ga qarshi mahalliy vakcina bo'lib, u favqulodda holatlarda foydalanish uchun ruxsat olganidan keyin ommaga taqdim etildi.

Turkiyada 4-yanvar kuni ertalabki holatga ko'ra, 18 yoshdan oshgan aholining 83,26 foizi vaksinaning ikki dozasi ni, 91,6 foizi esa bir martalik dozani olgan [3]. Vazirlik ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda emlashlar soni 1,3 million dozadan oshgan.



Ukraina 60 yoshli fuqarolar uchun COVID-19 vaksinasining kuchaytiruvchi dozasiga rasman ruxsat berdi



Ukraina 60 yoshdan oshgan fuqarolar uchun kuchaytiruvchi dozani tasdiqladi. Sog'liqni saqlash vaziri Viktor Lyashko Immunoprofilaktika bo'yicha Milliy texnik ekspertlar guruhi tavsiyasiga ko'ra tegishli buyruqni imzoladi [4]. "Mamlakatda 60 yoshdan oshgan fuqarolarga, ular qaysi vaksinani olganidan qat'i nazar, COVID-19

vaksinasining kuchaytiruvchi dozasini ruxsat berildi. Keksa insonlar vaksinaning ikkinchi dozasidan kamida olti oy o'tgach, kuchaytiruvchi dozani olishlari mumkin", - deb yozgan Lyashko.

60 yoshdan oshgan insonlar ko'taruvchi dozani vaksinaning ikkinchi dozasi qilingan kundan boshlab 6 oy o'tgach, optimal ravishda 6 oydan 9 oygacha bo'lgan davrda olishlari mumkin. Aholi qaysi vakcina bilan emlanganidan qat'i nazar, m-RNK vaktsinalariga - Moderna yoki Comirnaty / Pfizerga ustunlik beriladi. M-RNK vaktsinalari

bo'lmagan taqdirda, kuchaytiruvchi dozani Ukrainada ruxsat etilgan sxemalarga muvofiq boshqa vakcina bilan yuborish mumkin. Kuchaytiruvchi dozani olgandan so'ng, COVID sertifikatining amal qilish muddati uzaytiriladi [5]. Shuningdek, sxema ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida xohlovchilarni qayta emlash amalga oshiriladi:



- Dastlabki ikki doza Moderna yoki Pfizer + kuchaytiruvchi doza Moderna yoki Pfizer;
- Dastlabki ikki doza AstraZeneca (Covishield, SKBio) + kuchaytiruvchi doza Moderna yoki Pfizer;
- Dastlabki ikki doza CoronaVac + kuchaytiruvchi doza Pfizer;
- aralash rejimdagi dastlabki ikki doza + kuchaytiruvchi doza Moderna yoki Pfizer [6].

Bundan tashqari, AstraZeneca vaksinasi endi Moderna yoki Pfizerdan keyin qo'llanilishi mumkin. Dozalar orasidagi minimal interval 28 kun.



Rossiya 2022-yilda gripp va koronavirusga qarshi yagona vaksinani taqdim etadi

2022-yilda Rostex gripp va koronavirusga qarshi yagona vaksinani birinchi natijalarini taqdim etadi, dedi davlat korporatsiyasi rahbari Sergey Chemezov [7].

"Hozirda buning ustida ish olib boryapmiz. Eng avvalo xavfsiz va samarali bo'lishi uchun barcha sinovlarni o'tkazishimiz lozim", — dedi kompaniya vakili.

Shuningdek, u tadqiqot natijalari allaqachon yaxshi natijalarni ko'rsatayotgani ta'kidladi, ammo hali jiddiy ishlar qilinishi kerak deya ma'lum qildi [8].



Yangi ishlanma bo'yicha ma'lumotlar 24-aprel kuni ma'lum bo'lgan edi. Keyin Chemezov vakcina bir komponentli bo'lishini ma'lum qildi va preparatni 2021-yil oxiri yoki 2022-yil boshida ro'yxatdan o'tkazish rejalashtirilgan.

Emlash COVID-19 dan himoyalashning eng ishonchli usuli bo'lib qolmoqda. Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligi rahbari Mixail Murashkoning so'zlariga ko'ra, koronavirus bilan kasallanganlar orasida emlanganlar ulushi to'rt foizdan oshmaydi.

Armanistonda kuchaytiruvchi doza uchun yana bir vakcina tasdiqlandi

Armanistonda koronavirusga qarshi emlash uchun vaksinalar yana bittaga, "Sputnik Light" bilan to'ldirildi, – deb xabar berdi respublika Sog'liqni saqlash vazirligi [9]. Vakcina faqat uchinchi (kuchaytiruvchi) dozalarda emlash uchun mo'ljallangan.

"Eslatib o'tamiz, 18 yoshdan oshgan, xususan, xavf guruhidagi odamlar, vaksinaning ikkinchi dozasi olganidan so'ng 6 oy o'tgach, kuchaytiruvchi dozani qabul qilishlari mumkin, bu esa yuqori darajada himoya qilishga yordam beradi, ayniqsa dunyoda koronavirus shtammi Omicronning tarqalishi kontekstida", - deyiladi xabarda.

Armanistonda COVID-19 ga qarshi emlash kampaniyasi 13-apreldan boshlandi. COVID-19 ga qarshi emlash uchun quyidagi preparatlar mavjud: CoronaVac va Sinofarm (Xitoy), AstraZeneka (Buyuk Britaniya), Sputnik V (Rossiya) va Moderna (AQSH). Shu bilan birga, 12 yoshdan oshgan o'smirlar uchun Moderna vaksinasidan foydalanishga ruxsat berilgan. Sputnik Light vaksinasi esa kuchaytiruvchi doza uchun qo'llaniladi.



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (05.01.2022)
2. Turkey starts offering 5th dose of COVID-19 booster shots // <https://www.dailysabah.com/turkey/turkey-starts-offering-5th-dose-of-covid-19-booster-shots/news> (05.01.2022)
3. В Турции одобрили пятую дозу вакцины против коронавируса // <https://korrespondent.net/world/4434042-v-turtsyy-odobryly-piatuui-dozu-vaktsyny-protyv-koronavyrusa> (05.01.2022)
4. В Украине официально разрешили бустерную дозу вакцины против COVID-19 для людей 60+ // <https://kp.ua/covid/a640244-v-ukraine-ofitsialno-razreshili-busternuju-dozu-vaktsiny-protiv-covid-19-dlja-ljudej-60> (05.01.2022)
5. Украинцам старше 60 лет разрешили бустерную дозу вакцины от COVID-19: условия применения // <https://redpost.com.ua/news/1240031-ukraintsam-starshe-60-let-razreshili-busternuyu-dozu-vaktsinyi-ot-covid-19-usloviya-primeneniya> (05.01.2022)
6. В Украине разрешили бустерную дозу вакцины // <https://fbc.ua/ru/news/obshhestvo/v-ukraine-razreshili-busternuyu-dozu-vaktsiny/> (05.01.2022)
7. В "Ростехе" рассказали, когда появится единая вакцина от гриппа и COVID-19 // <https://ria.ru/amp/20220104/vaktsina-1766521595.html> (05.01.2022)
8. Глава "Ростеха" рассказал, когда в России появится единая вакцина от гриппа и коронавируса // https://mayaksbor.ru/news/society/glava_rostekha_rasskazal_kogda_v_rossii_poyavitsya_edinaya_vaktsina_ot_grippa_i_koronavirusa/ (05.01.2022)
9. В Армении появилась еще одна вакцина от коронавируса, она предусмотрена для бустерной вакцинации // <https://newsarmenia.am/news/society/v-armenii-poyavilas-eshche-odna-vaktsina-ot-koronavirusa-ona-predusmotrena-dlya-busternoy-vaktsinats/> (05.01.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022